

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12107596>

ADCHTI

Kabulova U.S

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik  
kafedrası professori

**Annotatsiya:** Aforizmlar paremalarning tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etiladi. Ularning birlashtiruvchi belgilari sifatida "barqarorlik", "tayyorlik", "semantik transpozitsiya" belgilari ko'rsatiladi. Agar shu uch belgi paremalarning muhim belgilari hisoblanib, bu belgilar paradigma hosil qiluvchi belgilar bo'lsa, u vaqtda paremalar paradigmasiga topishmoqlarni ham qo'shish kerak bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** aforistik mulohazalar, shiorlar, luqma, sitata, turg'un iboralar, aksioma, qisqa ibora, klishe.

**Аннотация:** Афоризмы признаются компонентами стихотворений. В качестве их объединяющих признаков показаны признаки «стабильность», «готовность», «смысловая транспозиция». Если эти три признака считаются важными признаками парем и эти признаки являются признаками, образующими парадигму, то к парадигме парем необходимо добавить загадки.

**Ключевые слова:** афористические высказывания, лозунги, выкуска, цитата, статические фразы, аксиома, короткая фраза, клише.

**Abstract:** Aphorisms are recognized as components of poems. The following signs are shown as their unifying features: "stability", "readiness", "semantic transposition". If these three features are considered important features of paretmes and these features are features that form a paradigm, then riddles must be added to the paretm paradigm.

**Key words:** aphoristic statements, slogans, excerpt, quotation, static phrases, axiom, short phrase, cliché

Hikmatli so'zlar – turg'un iboralarning o'ziga xos alohida turi hisoblanadi. Hikmatli so'zlarni o'tmish donishmandlari, zamonamizning atoqli arboblari keltirgan aforistik mulohazalar, shiorlar, luqmalar, sitatalar tashkil etadi. Hikmatli so'zlarning asosiy xususiyatlari ularning donishomuz ma'nosi, internatsional xarakteri, ma'lum bir muallifga taalluqliligidir. Ularning mana shu xususiyatlari turg'un iboralar safidan joy olish uchun asosiy mezon hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan ba'zi xossalari eskirib qolsa ham ular tilda turg'un ibora sifatida saqlanib qoladi<sup>41</sup>.

**Aforizm** (*yunon. aphorismos – qisqa so'z*) – to'liq fikr, falsafiy yoki kundalik donolikni o'z ichiga olgan qisqa so'z; hodisalarning ma'nosini umumlashtiradigan ibratli xulosa, bu

<sup>41</sup> Mamatholiqova Sh. Frazologizmlarning milliy va madaniy xususiyatlari. – Andijon, 2012. – B.15.

keng darajadagi umumlashtirishning tayyor xulosasini taklif qiladi. Aforizmlar ko'pincha maqollarni o'z ichiga oladi. Ammo aforizm har doim muallifga ega, maqol esa xalq ijodiyoti mahsulidir.

Aforizmga tilshunoslikda turlicha izohlar beriladi: etimologik nuqtayi nazardan, "aforizm" yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, ajratish yoki belgilashni anglatadi. Aforizm – bu aksioma, qisqa ibora, maqola, klishe, epigrama kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchalar toifasiga kiradi. Aforizmlar qisqa, qiziqarli iboralar sifatida bugungi kunda klassik antologiyalarda uchraydi.

**Aforizm** (gad. yunoncha ἀφορισμός «ta'rif, hikmatli so'z») ixcham, esda qolarli matn shaklida aytilgan va keyinchalik boshqa odamlar tomonidan qayta-qayta ishlatiladigan hikmatli so'z. Ushbu so'zlar Belgiyalik yozuvchi, usta aforist Joris de Brunga tegishli. Darhaqiqat, ham og'zaki, ham yozma nutqning go'zalligi va mahoratligini aforizmlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Yunonchadan tarjima qilingan aforizm "ta'rif" degan ma'noni anglatadi va unutilmas shaklda aytilgan yoki yozilgan va boshqa odamlar tomonidan qayta-qayta takrorlangan asl, to'liq fikrdir. Aforizmlarning juda ko'p misollari bor, masalan: *Faqat foydasi tegadigan ilmni olish kerak, foydasiz fazilatdan qochmoq va faqat zarur narsaga quloq ochmoq lozim; Saxovat biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab bo'lsa, hatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorlik bo'lgani taqdirda ham, u saxovat emas.*

Aforizmlar haqida nemis olimi, publitsist, aforist V.Shvebel (Wilhelm Schwebel; XX asr) shunday degan: "Aforizm – bu oson yodda qoluvchi haqiqat". Birinchi marta aforizm atamasi antik davrning buyuk olimi Gippokrat tomonidan tibbiyot risolasi sarlavhasida ishlatilgan. Yozish va bosmaxona paydo bo'lishi bilan mualliflik va tematik to'plamlarda aforizmlar tuzila boshladi. Keyinchalik ularning chiqarilishi muallif Erasmus Rotterdam tomonidan "Adagia"ning nashr etilishi bilan muntazam ravishda amalga oshirila boshlagan. Yangi paydo bo'lgan va keyinchalik rivojlanayotgan aforistikaning ustalari qadimgi donishmandlar, O'rta asr Sharq shoirlari va olimlari, Yevropaning ma'rifatparvarlari, XX asr romanchilari va mutafakkirlari edi. Ba'zi tadqiqotlar materiallariga ko'ra, aforizmga zamonaviy shaklda matematika, kibernetika, tilshunoslik va shu kabi ta'limotlarda qilingan turli xil ilmiy kashfiyotlar ta'sir ko'rsatgan<sup>42</sup>.

**Aforizm** – bu muallif tomonidan qisqacha va esda qolarli tarzda yozilgan o'ziga xos fikr. Aforizmning original ekanligi uni umumiy fikrga qarama-qarshi qo'yadi. Shuning uchun aforizmlarning biroz paradoksal, noyob va g'ayrioddiy xususiyati tabiatan kontekstual bo'lsa-da, ma'lum bir tarixiy davr va jug'rofiy hudud uchun yaratilganligi sababli, aforizm o'z boyligini boshqa avlodlarga o'tkaza oladi.

<sup>42</sup> Афоризм // Большая российская энциклопедия. Том 2. – М., 2005. Носиров Ш. Афоризмлар. – Т.: "Kamalak" нашриёти, 2015. Аҳмад Муҳаммад Турсун. Ҳикматлар китоби. – Т.: "Hilol nashr" нашриёт матбаа, 2014; Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 2004; Мухторов Ж., Саноқулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995; Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Т., 2010; Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995; Юсуф Товаслий. Ҳикматлар хазинаси. – Т.: Наврўз, 1994.

Aforizmdan farqli o'laroq, klishe – bu asl tabiatini yo'qotgan va kunlik siklga kirgan fikrdir. Uning yozma va og'zaki shaklda ifodalanishi mualliflik huquqi bilan bevosita bog'liq. Klishe, maqol yoki mataldan farqli o'laroq aforizm uni shaxsan yozma yoki oshkora e'lon qilgan muallif nomi bilan bog'liq. Aforizm, asosan, og'zaki shaklda ifodalanadigan mardlik va jasoratga ega<sup>43</sup>.

Tilshunoslik fanida “hikmatli so'zlar” nomi bilan tanish bo'lgan avlodan- avlodga o'tib kelayotgan, yaratilishiga ko'ra o'z tarixiga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalari o'ziga xos murakkabliklar bilan ajralib turadi. o'zbek tilida *jonga jon, qonga qon* frazemasini; *har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu tarozu* kabi frazemalar mavjud. Bir tomondan, ular frazemalar kabi turg'un shakl va turg'un ko'chma ma'noga ega bo'lgan holda, ikkinchi tomondan, faqat o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu frazemalardagi ma'no ba'zan uni birinchi marta ifoda etgan shaxs nomi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan dastlab qo'llangan badiiy asar bilan assotsiatsiyalanadi. Shu nuqtayi nazardan, bunday birliklarni, ularning ma'nolarini erkin so'z birikmalari yordamida izohlash talab etiladi. Masalan, “*Men hech narsa bilmasligimni bilaman*” deb, Suqrot tomonidan bildirilgan ushbu e'tirof barcha tillarga so'zma so'z tarjima qilingan<sup>44</sup>.

N.T. Fedorenko va L.I. Sokolskaya fikricha, “aforizm va so'zlarni bir xil janr sifatida ko'rib chiqish uchun barcha asoslar bor. Tasavvur qilish mumkinki, tarixiy nuqtayi nazardan bu tushunchalar bir tekis chiziqda joylashgan. Aforizm – zamonaviy so'zlashuv turi, so'zlar – aforizm o'tmishi”<sup>45</sup>.

Aforizm deganda g'ayrioddiy lakonik shaklda ifodalangan fikrni tushunish odat tusiga kirgan. Aforizmning asosiy xususiyatlari – ekspressivlik, qisqalik, fikr chuqurligi, muallifning mavjudligi, shuningdek, hukmning kutilmaganligidir<sup>46</sup>.

Aforistik janrlarga quyidagilar kiradi: “aforizm, maqol, maksima, sarlavha, shior, dastur bayoni, ramziy ibora, indeksli ibora”<sup>47</sup>.

Aforizm “dono fikrni ifodalaydi, bu mutlaqo yangi bo'lishi shart emas, balki faqat original shaklda bo'lishi lozim. Kichik janrdagi matnlar uchun umumiy belgi bu ixchamlik, lo'ndalik va qisqalikdir”<sup>48</sup>.

<sup>43</sup> Karimova M. Paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi//f.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Andijon, 2022. – B. 63.

<sup>44</sup> Yusufjonova Sh.M. Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralarning milliy va madaniy xususiyatlari//PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan f.f.f.d. dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2022.

<sup>45</sup> Цит. по Швачко С.А. Алломорфизм единиц языка и речи: контрастные аспекты // [https://essuir.sumdu.edu.ua/bitstream-download/123456789/34509/1/shvachkoallomorphism.pdf;jsessionid=EEAB2C\\_C04F370A99536EEB82FC\\_BDA4D](https://essuir.sumdu.edu.ua/bitstream/download/123456789/34509/1/shvachkoallomorphism.pdf;jsessionid=EEAB2C_C04F370A99536EEB82FC_BDA4D)

<sup>46</sup> Karimova M. Paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi//f.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Andijon, 2022. – B. 68.

<sup>47</sup> Шейгал Е.И. Семантика политического дискурса // <https://cyberleninka.ru/article/n/2001-02-010-sheygal-e-i-semiotika-politicheskogo-diskursa-in-t-yazykoznaniiya-ran-volgogr-gos-ped-un-t-volgograd-peremena-2000-368-s-bibliogr-s>

<sup>48</sup> Швачко С.А. Алломорфизм единиц языка и речи: контрастные аспекты // [https://essuir.sumdu.edu.ua/bitstream-download/123456789/34509/1/shvachkoallomorphism.pdf;jsessionid=EEAB2C\\_C04F370A99536EEB82FC\\_BDA4D8](https://essuir.sumdu.edu.ua/bitstream-download/123456789/34509/1/shvachkoallomorphism.pdf;jsessionid=EEAB2C_C04F370A99536EEB82FC_BDA4D8)

**ADABIYOTLAR:**

1. Афоризм // Большая российская энциклопедия. Том 2. – М., 2005.
2. Аҳмад Муҳаммад Турсун. Ҳикматлар китоби. – Т.: “Hilol nashr” нашриёт матбаа, 2014.
3. Носиров Ш. Афоризмлар. – Т.: “Kamalak” нашриёти, 2015.
4. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 2004.
5. Мухторов Ж., Саноқулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
6. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Т., 2010.
7. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
8. Юсуф Товаслий. Ҳикматлар хазинаси. – Т.: Наврўз, 1994.
9. Karimova M. Paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi//f.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Andijon, 2022. – B. 63.
10. Yusufjonova Sh.M. Nemis va o‘zbek tillaridagi frazeologik iboralarning milliy va madaniy xususiyatlari//PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan f.f.f.d. dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2022.